

**SO'ZLARNING KELIB CHIQISHI VA INTERAKTIV YONDASHUVLAR:
INGLIZ TILINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLAR**

Raxmatullayeva Shaxrizoda

SamDU Kattaqo'rg'on filiali talabasi

+998906051050

shahrizodaaa00077@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda til o'rganishning interaktiv usullari, shu jumladan, ruhlantiruvchi va o'yin asosidagi yondashuvlar muhokama qilinadi. Dastlab, so'zlarning kelib chiqishi haqidagi qiziqarli misollar orqali tilshunoslikning ta'lim jarayoniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilarning e'tiborini jalb qilish va darslarni samarali tashkil etishda vizual materiallarning roli tushuntiriladi. Shu bilan bir qatorda maqolada psixologik va pedagogik yondashuvlar asosida o'yin, o'qish va muloqot kabi asosiy faoliyatlar ta'lim jarayonidagi o'rniga baho beriladi. XXI asr texnologiyalarining ta'limdagi ahamiyati, ayniqsa, Duolingo, British Council, Salom! Ingliz tili va Lingualeo kabi onlayn platformalar yordamida o'quvchilarning yangi so'zlarni o'rganish va to'g'ri talaffuz qilish qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek maqola innovatsion o'qitish usullari va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samaradorligini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda ilg'or usullardan foydalanish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ingliz tili o'qitish, interaktiv ta'lim, til o'rganish usullari, o'yin asosidagi yondashuv, multimedia vositalari, innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik metodlar, psixologik yondashuvlar, muloqot va o'yin, o'quvchilarning faolligi, zamonaviy o'qitish usullari, Duolingo, British Council, Lingualeo, Salom! Ingliz tili, raqamli ta'lim, lingvistika, so'zlarning kelib chiqishi, talaffuzni rivojlantirish, ta'lim samaradorligi, o'qituvchi qobiliyatlari.

**ПРОИСХОЖДЕНИЕ СЛОВ И ИНТЕРАКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ:
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

Рахматуллаева Шахризода

Студентка СамДУ Каттакурганского филиала

+998906051050

shahrizodaaa00077@gmail.com

Аннотация:

В данной статье рассматриваются интерактивные методы обучения английскому языку, включая мотивационные и игровые подходы. В начале приводятся интересные примеры происхождения слов, которые показывают влияние лингвистики на образовательный процесс. Также объясняется важность использования мультимедийных средств в обучении, привлечение внимания учащихся и роль визуальных материалов в организации эффективных уроков. В статье также рассматривается влияние психологических и педагогических подходов на основные виды деятельности, такие как игра, чтение и общение, в процессе обучения. Обсуждается значение технологий XXI века в образовании, в частности, возможности онлайн-платформ, таких как Duolingo, British Council, Salom! English и Lingualeo, для развития у учащихся навыков изучения новых слов и правильного произношения. Кроме того, статья направлена на анализ эффективности интеграции инновационных методов обучения и современных технологий в образовательный процесс, а также включает рекомендации по использованию передовых методов обучения английскому языку.

Ключевые слова: Обучение английскому языку, интерактивное обучение, методы изучения языка, игровой подход, мультимедийные средства, инновационные образовательные технологии, педагогические методы, психологические подходы, общение и игра, активность учащихся, современные методы обучения, Duolingo, British Council, Lingualeo, Salom! English, цифровое обучение, лингвистика, происхождение слов, развитие произношения, эффективность обучения, педагогические способности.

THE ORIGIN OF WORDS AND INTERACTIVE APPROACHES:
INNOVATIVE METHODS IN TEACHING ENGLISH

Raxmatullayeva Shaxrizoda

Student of SamSU, Kattakurgan branch

+998906051050

shahrizodaaa00077@gmail.com

Abstract:

This article discusses interactive methods of language learning in teaching English, including motivating and game-based approaches. First, interesting examples of the origin of words are presented to highlight the impact of linguistics on the educational process. Furthermore, the importance of using multimedia tools in the educational process is explained, focusing on how they capture students' attention and the role of visual materials in organizing effective lessons. In addition, the article evaluates the role of main activities such as playing, reading, and communicating in

the learning process, based on psychological and pedagogical approaches. The significance of 21st-century technologies in education, especially the opportunities for students to develop new vocabulary and correct pronunciation through online platforms like Duolingo, British Council, Salom! English, and Lingualeo, is also discussed. The article aims to analyze the effectiveness of integrating innovative teaching methods and modern technologies into the learning process and provides recommendations for using advanced methods in teaching English.

Keywords: Teaching English, interactive learning, language learning methods, game-based approaches, multimedia tools, innovative educational technologies, pedagogical methods, psychological approaches, communication and play, students' engagement, modern teaching methods, Duolingo, British Council, Lingualeo, Salom! English, digital education, linguistics, word origins, pronunciation development, educational effectiveness, teacher competencies.

Kirish

Barchamizga ma'lumki til o'rganish jarayoni, asosan ingliz tilini o'rganish ko'plab insonlar uchun qiyinchilik tug'diradi . Biroq, shunga qaramay shu jarayonni yengillashtiradigan interaktiv yondashuv usullari mavjud . Til o'rganish va o'rgatish samaradorligini oshirish maqsadida psixologlar yosh guruhlarini o'rganib , ularning bilim ko'nikmalarni o'zlashtirish xususiyatlarini tahlil qilganlar. Tadqiqotlarda ma'lum bo'lishicha , ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda o'yin orqali til ko'nikmalarini shakllantirish samarali usul hisoblanadi . Til o'qitish jarayonida o'qituvchilarning bunday samarali metodlarni qo'llay bilishlari ,pedagogik mahoratni rivojlantirishlari va o'quvchilarga nisbatan munosabat ustida ishlashlari ham juda muhimdir .Bugungi kunda ushbu tadqiqotlarga asoslangan holda til o'rganishga mo'ljallangan maxsus o'yinlar ham yaratilmoqda .Ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar uchun bunday o'yinlar so'z boyligini orttirishdagi muammolarni bir muncha kamaytirmoqda .

Asosiy qism

Insonlar orasida til o'rgatish, yillar davomida turli usullar va yondashuvlar asosida ilm olamida yuqori zinapoyalarga ko'tarilib kelmoqda. Bu zinapoyada ruhlantiruvchi va o'yin asosidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni darslarni loyiha asosida olib borish, o'rganilayotgan tilning madaniyati bilan tanishish, multimedia vositalaridan foydalanish (prezentatsiya, rasm) kabilar o'rganish jarayoni samaradorligini oshiradi.

Yuqorida keltirilgan yondashuv usullarini ingliz tili o'rgatishda ham qo'llash mumkinmi?

Albatta ingliz tilini o'rgatishda bunday yondashish o'quvchilarda tilga bo'lgan qiziqishni va motivatsiyasini oshiradi. Masalan , darslarni loyiha asosida olib borish , yanada ochiqroq aytganda o'quvchilarga o'rgatilayotgan bilimlarni amalda qo'llash

imkonini berish . Ularning bilim darajalaridan kelib chiqqan holda o'tilgan mavzuga oid taqdimot tayyorlash, blog post yozish yoki plakat, afishalar tayyorlash kabi. Bunday mashg'ulotlar inson ongida o'rganilgan barcha bilimlarni muhrlaydi. Chunki o'quvchi o'z loyihasini tayyorlash davomida o'tilgan mavzuni, yangi o'rgangan bilimlarini nafaqat mustahkamlaydi yana o'z loyihasini mukammal qilish maqsadida kichik tadqiqot va izlanishlar olib boradi. Bunday holatda biz loyihani til madaniyati bilan bog'lashimiz mumkin. Shu vaqt davomida o'quvchi o'rganilayotgan tilning (ingliz tili) urf-odatlarini, an'analari va hatto tilning shevalari haqida ham ma'lumotlar bazasi yaratadi. Masalan har yili Chelsida butun dunyoga mashhur gul festivali, Edinburgda musiqa-drama festivali shu bilan birga Buyuk Britaniyaning urf odatlariga ko'ra "Qayiq poygasi", "Ot poygasi", "Futbol chempionatlari" kabi bayramlar talabalar o'rtasida uzoq yillar mobaynida keng miqyosda nishonlanib kelmoqda. Shuningdek tilda so'zlarning kelib chiqishini (Etimology), qaysi tildan kirib kelganligini o'rganish yoki faqatgina kichik guruhlar tushuna oladigan til (slang) shu mavzularda plakat, afishalar tayyorlash ham namuna bo'la oladi . Ingliz tilida bu mavzular (Etimology), (Slang) bo'yicha ko'plab so'zlarni ingliz tiliga kirib kelganligini va hozirda muntazam qo'llanilayotgan so'zlar ekanligi o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otadi. Keling birga bunday so'zlarni qizsqacha aytib o'tamiz!

Boshqa tillardan olingan sozlar ;(Words from other languages)

Banana (Wolof) - The word "banana" comes from the Wolof language of West Africa. Portuguese and Spanish explorers introduced the fruit and its name to Europe. ("Banana" so'zi G'arbiy Afrikaning Volof tilidan kelib chiqqan. Portugaliyalik va ispaniyalik tadqiqotchilar bu mevani va uning nomini Yevropaga tanishtirgan.)

Beef (French) - Beef came to English from the Old French word boef. But that's not the only meat name with French origins! "Mutton", "veal" and "pork" are all thought to be derived from Old French. ("Beef" so'zi ingliz tiliga qadimgi fransuzcha "boef" so'zidan kelib chiqqan. Ammo fransuz tilidan olingan yagona go'sht nomi bu emas! "Qo'y go'shti" (mutton), "buzoq go'shti" (veal) va "cho'chqa go'shti" (pork) so'zlari ham qadimgi fransuz tilidan kelib chiqqani taxmin qilinadi. Bu esa so'zlarning kelib chiqishini o'rganishda qiziqarli misollardan biridir.

Dars davomida o'quvchining e'tiborini mavzuga jalb qilishda multimedia vositalari (rasmlar, grafikalar) muhim rol o'ynaydi. Foydalaniladigan rasmlar yetarlicha katta, yorqin ranglarda bo'lishi va oddiy gaplar bilan ifodalangan bo'lishi lozim. Shu tarzda o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish, dars davomida zerikishining oldini olish va materialni yaxshiroq tushunishini ta'minlash mumkin.

Psixologlarning fikriga ko'ra, inson faoliyatini klassifikatsiya qilishning keng tarqalgan usullaridan biri uni asosiy faoliyat turlariga ajratishdir. Bular – muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir. O'qitish jarayonida esa o'quvchilarning asosiy faoliyatlari o'yin, o'qish va muloqot hisoblanadi. Pedagoglar bu faoliyatlarga alohida

e'tibor berishi va o'qituvchi psixologiyasi hamda ta'lim va tarbiya psixologiyasini o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu bilimlar o'qituvchilarga o'zlarida shakllantirishi kerak bo'lgan didaktik, akademik, perseptiv va nutq qobiliyatlari haqida tushuncha beradi.

XXI asr texnologiyalar asri bo'lganligi sababli bugungi kunda o'quvchilarning e'tiborini tortadigan turli onlayn platformalar va maxsus o'yinlar mavjud. Bunday vositalar uydan chiqmasdan yangi so'zlarni o'rganish, to'g'ri talaffuz qilish kabi jarayonlarni osonlashtiradi. O'quvchilar orasida eng ko'p foydalaniladigan ilovalar – Duolingo, British Council ilovalari, Salom! Ingliz tili hamda Lingualeo kabi dasturlardir.

Xulosa

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv usullar va zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi. O'yin asosidagi yondashuvlar, multimedia vositalari va onlayn platformalar yordamida o'qitish samarali va qiziqarli bo'ladi. XXI asr texnologiyalari o'quvchilarning faolligini oshiradi va til o'rganish jarayonini yanada osonlashtiradi. Innovatsion metodlar o'qituvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi. Bu metodlar va keng ko'lamdagi islohotlardan unumli foydalanish orqali ta'lim jarayonini yanada samarali qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Muxammadiyeva, N. (2022). "Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarning o'ri va ahamiyati". *Research and Education*, 1(5), 22–28.
2. Palvanbayeva, N. R. (2023). "Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda innovatsion usullar va energayzer o'yinlar". *Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti*, 474–476.
3. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To'ychieva S., Djumabaeva M. (1974). *Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya*. Toshkent: O'qituvchi.
4. Shoimardonov, B. (2021). "Ingliz tili - audio qo'llanma". Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Noshirligi.
5. "Ingliz tili. Kichkintoylar uchun ajoyib darslik" – Galina Shalaeva, 2015.